



QIPCHOQ DIALEKTLARIDA UCHROVCHI IZOGLOSSALARDA FONETIK,LEKSIK MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Termiz davlat universiteti magistranti

Xushboqova Muqaddas

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanidagi mahallarda uchrovchi dialektal izoglossalarda turli fonetik,lekisik,morfologik va sintaktik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Areal lingvistikaning mazmun-mohiyati haqida ilmiy manbalarga tayangan holda ma'lumot beriladi. Izoglossalar to'rt toifadagi ya'ni, kiyim-kechakka,oziq-ovqat,uy-ro'zg'or va hayotiy-maishiy dialektlardan yig'ilgan.

Tayanch tushunchalar: izoglossa, dialekt, qipchoq, Jarqo'rg'on, hayotiy-maishiy, sheva.

Abstrakt. This article analyzes various phonetic, lexical, morphological, and syntactic changes observed in dialectal isoglosses found in local communities of the Jarqo'rg'on district of Surxondaryo region. Based on scholarly sources, information is provided on the essence and significance of areal linguistics. The isoglosses were collected from four categories of dialects, namely those related to clothing, food, household items, and everyday life.

Keywords: isogloss, dialect, kipchak, Jarqo'rg'on, everyday and domestic, local dialect

Dialektologiya bu qadriyatlarimiz mujassamlashgan fan. Ana shu fanning ajralmas bo'lagi esa areal lingvistikadir. Areal lingvistika sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini o'rganadi. Bu terminlarning birinchisi lotincha area — maydon, kenglik, hudud hamda lingvistika - tilshunoslik, ikkinchisi esa lingvistika



va geografiya tarkibiy qismlaridan iborat. Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarinining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida karta(xarita)da, aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyaning bir bo'limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir.¹ Izoglossa arealogik tadqiqotning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, o'zaro o'xshash hodisa (qonuniyat)ning tarqalish (qo'llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi.²

Bu so'z lotincha bo'lib, izo - teng, glossa - til degan ma'nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko'ra tarqalishini ko'rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning izofonema, izomorfema, izoleksema tiplari belgilanadi.³

Izoglossani nima asosida o'tkazish (izoglossa mazmuni, tarqalishi, o'rganilayotgan hodisa yoki qonuniyat) arel tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Tavsifiy (dialektolografik) ishlarda, ya'ni ma'lum bir hududdagi shevalar tavsiflanganda, odatda, shu shevaning o'lchov mezoni sifatida qabul qilingan etalondan yoki boshqa bir shevadan farqlovchi katta-kichik har qanday farq qayd etib boriladi.⁴

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida dialektal izoglossalar yig'ilib ularning fonetik, morfologik va leksik o'zgarishlari ko'rib chiqildi. Har bir izoglossalar 4 ta guruh ya'ni, oziq-ovqat, kiyim-kechak, hayotiy-maishiy va uy-ro'zg'or dialektlari doirasida to'plangan:

¹ <https://oefen.uz>

² IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti.

³ <https://oefen.uz/ru/documents/slaydlar/umumiy/areal-lingvistika>

⁴ IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti




1-jadval

<i>Kiyim-kechakka doir dialektal leksemalar</i>					
Adabiy til	Porloq yulduzi MFY	Markaziy MFY	Kunchiqish MFY	Mingchinor MFY	Xo'jaqishloq MFY
Nimcha	Guppicha	Gupicha	Nimcha	Vaskarcha	Vaskarcha
—	Kurtta	Kurtta	Alacha	Kurtta	Kurtta
Do'ppi	Toqya	Toqya	Taqya	Toqya	Taqya
Kallapo'sh	Kalabash	Kalabash	Kalabosh	Kallapo'sh	Kalabash
Xalat	Xolat	Xolat	Xalat	Xalat	Xolat
Belbog'	Belbov	Belbov	Belboh	Belbov	Belbov
<i>Dialektlarda o'zgarishga uchragan izoglossalar</i>					
Fonetik	Guppicha-gupicha; kalabash-kalabosh; xolat-xalat; belbov-belboh; toqya- taqya				
Morfologik	Kalabash-kallapo'sh				
Leksik	Kurtta- alacha; guppicha- nimcha				
Sintaktik					

Yuqorida ko'rsatilgan kiyim-kechakka oid dilektal izoglossalar mahallaning siyosiy xartasida ham shartli belgilar yordamida aks etadi:



1-rasm



Mazkur amaliyot 5 ta mahalla: "Porloq yulduzi", "Mingchinor", "Xo'jaqishloq", "Markaziy" va "Kunchiqish" mahalla fuqarolar yig'inlari orasida olib borilgan. Yuqoridagi xariatada faqat "Mingchinor" mahallasidagi dialektal izoglossalarning fonetik, morfologik va leksik o'zgarishlari aks etgan. Lisoniy hodisaning (qonuniyatning) tabiatiga muvofiq ravishda izoglossa har xil, jumladan, fonetik fonologik, morfemik, morfologik, leksik, sintaktik bo'lishi mumkin.⁵ Yuqorida ko'rsatilgan izoglossalarning 3 xil o'zgarishga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Fonetik izoglossalarning o'zgarishlari a-o ga (toqya-taqya), o-a ga (kalabosh-kalabash) holatida keng tarqalgan.

A.Boltaev, G.Blagovalarning ishlarida o'zbek dialektologik tadqiqotlarida shevaning xususiyatlari sifatida ajratilgan juda ko'p sonli belgilar aksar holatlarda shevaning mohiyatini belgilash uchun ikkinchi darajali belgilar bo'lib, izoglossa vazifasini o'tay oladigan eng asosiy belgilar bu hodisalar ichida yo'qolib ketishini qattiq tanqid qilishadi.⁶

⁵ IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti.

⁶ IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. IZOGLOSSA Po'latova Sevara Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O'zbekiston milliy universiteti.
2. Saidmuso Rahimov Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati. Toshkent - 1995.
3. <https://oefen.uz>
4. Abdullayev, F. O'zbek dialektologiyasi— Toshkent: Fan, 1964.
5. Shoabdurahmonov, Sh., Asqarova, M., Hojiyev, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili (shevalar bilan bog'liq boblar mavjud)— Toshkent: O'qituvchi, 1980.
6. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b
7. Раҳимов С. Сурхондарё Ўзбек тили шевалари луғати (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1995.
8. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1985.